



NAVOIY VILOYATI KARMANA TUMANI HOKIMINING QARORI

2026-yil 9-fevral

24-5-71-Q/26

Karmana tuman hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi “Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo‘nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha-chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-son hamda Navoiy viloyati hokimining 2026-yil 14-yanvardagi 7-5-0-Q/26-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi “Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo‘nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha-chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimining samaradorligini yanada oshirish hamda mas‘ul rahbarlarning manzilli vazifalarni belgilash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi “Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo‘nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha-chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-son Navoiy viloyati hokimining 2026-yil 14-yanvardagi 7-5-0-Q/26-sonli qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ushbu qarori bilan quyidagilar:

qaror ijro etilishining asosiy maqsadlari va chora-tadbirlari (maqsadlar va ustuvor vazifalar, tashkiliy-profilaktik chora-tadbirlar, tashkiliy-nazorat chora-tadbirlar) belgilanganligi;

“Respublika mahallalarida “Ijtimoiy profilaktika haftaligi”ni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” tasdiqlanganligi;

mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish yo‘nalishida amalga oshirilgan ishlar va ularning natijadorligi har oy yakunida-viloyat prokurorlari huzurida, har chorak yakunida-ichki ishlar vaziri huzurida, har yarim yilda Bosh prokuror huzurida tegishli viloyat va respublika rahbarlari ishtirokida tanqidiy muhokama qilinishi hamda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga tahliliy axborot hamda mas'ullarni rag'batlantirish yoki intizomiy jazolash bo'yicha takliflar kiritib borilishi inobatga olinsin.

3. Tuman hokimining o'rinbosarlari, tuman prokurori (Z.Barnayev), tuman ichki ishlar bo'limi (A.Ikromov), kriminogen vaziyati og'ir mahallalari kesimida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-son qarori bilan tasdiqlangan "mahalla-tuman" darajalardagi manzilli chora-tadbirlarning namunaviy "yo'l haritalari" asosida 2026-yilning birinchi choragi uchun mo'ljallangan hududiy "yo'l xaritalar"ni ishlab chiqilishini va ijroga qaratilishini tashkil qilsin.

4. Ichki ishlar bo'limi (A.Ikromov), tuman hokimligi (S.Bahronov) bilan birgalikda tuman mahallalarida sodir etilgan ijtimoiy-maishiy tisdagi jinoyatlarning sabablari, sharoitlari va ularni keltirib chiqargan omillarni tanqidiy muhokama qilinishi va ijtimoiy profilaktikaga mas'ul tashkilotlar rahbarlarining harakatsizligiga nisbatan choralar ko'rilishini tashkil etish uchun har oy yakunida tuman hokimining yig'ilishlarini tashkil qilinishini va ushbu yig'ilishlarga tanqidiy-tahliliy ma'lumotlar tayyorlanishini ta'minlasin.

5. Iqtisodiyot va moliya bo'limi (U.Rustamov), tuman prokurori tomonidan har chorakda kiritiladigan takliflarga asosan mahalla jinoyatchiligini jilovlash yo'nalishida mas'ul hududiy davlat idoralarining o'rnak ko'rsatgan rahbar va xodimlari mahalliy budjet daromadlarining prognozdan oshirib bajarilgan qismi hisobidan mehnatga haq to'lash fondi (pul ta'minoti)ning bir baravari miqdorda mukofot bilan rag'batlantirib borilishini ta'minlasin.

6. Ichki ishlar bo'limi (A.Ikromov), tuman hokimligi (S.Bahronov) bilan birgalikda tuman hokimi tomonidan har oyda kriminogen vaziyati og'ir va murakkab mahalla va ovullarga borgan holda, yoshlar, ayollar va ishsizlarga nisbatan belgilangan ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish holatini tanqidiy o'rganish hamda ularning ijtimoiy-maishiy muammolarini bartaraf etish bo'yicha manzilli choralarni ko'rishini tashkil etish maqsadida hokimning aholi bilan uchrashuvlari jadvalini ishlab chiqib, tasdiqlanishini ta'minlash;

"Respublika mahallalarida "Ijtimoiy profilaktika haftaligi"ni o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom"ga asosan o'z hududlarida har oyda bir marotaba "Ijtimoiy profilaktika haftaligi"ni nizomda belgilangan tartibda qat'iy nazorat ostida o'tkazilishini;

har hafta yakunida ijtimoiy-maishiy turdagi jinoyatlar sabablarini muhokama qilsin, o'zlari va o'rinbosarlarining kriminogen vaziyati og'ir mahallalarga shaxsan borib, ijtimoiy muammolarni o'rganib, hal qilib borilishini ta'minlansin.

7. O'zbekiston mahallalari uyushmasi Karmana tuman bo'limi (F.Yusupov):

mahallalalarda sodir etilgan jinoyatlarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni muhokama qilinishi va tegishli tadbirlar belgilanishini ta'minlasin;

xulq-atvorida muayyan murakkabliklar kuzatilgan, profilaktik hisobda turgan yoshlarning ro'yxati shakllantirilib, mahalladagi oqsoqollar, diniy ulamolar va otinoyilarni jalb etgan holda ota-onalarga farzand tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy qo'llab-quvvatlash hamda xulq-atvordagi muammolarni bartaraf etish yuzasidan doimiy muloqot o'rnatish;

xulq-atvorida muayyan murakkabliklar kuzatilgan, profilaktik hisobda turgan yoshlarni mahalladagi tajribali hunarmand, usta va boshqa kasb egalari kasb-hunar o'rganish uchun shogirdlikka birlashtirgan holda kuzatib borsin hamda ularga o'zining mustaqil faoliyatini boshlashiga ko'maklashsin.

8. Karmana tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (U.Hasanov) ishsiz yoshlar va xotin-qizlar, xorijda uzoq muddatda bo'lgan, shuningdek, muayyan daromad manbaiga ega bo'lmagan probatsiya nazoratidagi va ijtimoiy profilaktika obyekti hisoblangan shaxslarning hamda ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan mahkumlarning bandligini ta'minlash, ularni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini jadallashtirsin.

9. Karmana tuman 1-son texnikumi (F.Ergashev), Karmana tuman 2-son texnikumi (A.Qodirov), Navoiy raqamli texnologiyalar texnikumi (I.Safarov):

o'quvchilar jinoyatchiligini jilovlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni belgilab, mas'uliyatsizlikka yo'l qo'ygan ta'lim sohasi vakillariga keskin choralar ko'rib borsin;

tuman ichki ishlar (A.Ikromov) va Yoshlar ishlari bo'limi (B.Bekov) bilan birgalikda qarovsiz va nazoratsiz qolgan yoshlarni aniqlash, o'qitish va tarbiyalash, sababsiz dars qoldirayotganlarni ta'lim jarayoniga jalb etish yuzasidan aniq va samarali chora-tadbirlarni belgilasin.

10. Yoshlar ishlari tuman bo'limi (B.Bekov):

yoshlar jinoyati ko'p sodir etilgan tumandagi mahalla va ovullarga chiqqan holda ularga amaliy yordam berish, yoshlar jinoyatini oldini olish bo'yicha aniq amaliy natijalar ko'rsatish choralarini ko'rsin;

ta'lim muassasalari bilan birgalikda uyushmagan yoshlar bilan ish olib borish, ularning o'qish va uqishdan tashqari vaqtdagi xulq-atvorini o'rganish, bandligini ta'minlash, qarovsiz va nazoratsizligini, ayniqsa voyaga yetmagan shaxslarni dars va tungi vaqtlarda ko'ngilochar maskanlarda bo'lishini oldini olish borasida zarur chora tadbirlarni ko'rsin;

o'qimaydigan va ishlamaydigan yoshlarni qiziqishlari bo'yicha kasbga yo'naltirib, bandligini ta'minlasin va bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etsin;

mahalla va ovul hududidagi murabbiylar, kasb egalari va tadbirkorlar bilan hamkorlikda o'quvchilar uchun ustozlik tizimini yo'lga qo'ysin hamda xulq-atvorida muayyan murakkabliklar kuzatilgan yoshlarni to'garaklarga yo'naltirsin;

o'qimaydigan, ishlamaydigan va profilaktik hisobda turuvchi voyaga yetmaganlarning aniq ro'yxatini shakllantirib, ularni sport, turli madaniy-ma'rifiy tadbirlarga jalb etsin.

11. Tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (Z.Xodjayevo):

maktab va ota-onalar o'rtasidagi muloqotni yanada yaxshilash maqsadida kundalik bilan ishlash tizimini takomillashtirish choralari ko'rsin;

O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi hamda "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlarining umumta'lim muassasalarida to'liq ijrosini ta'minlash choralari ko'rsin;

umumta'lim maktabi o'quvchilari o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyat sodir etilishining oldini olish borasida huquq tartibot idoralari va mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirsin;

o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish, huquqbuzarlik va jinoyat sodir etilishini oldini olish borasida ta'lim muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirib, har chorak yakunida mazkur masalani boshqarma yig'ilishlarida tanqidiy muhokama qilib borsin;

maktablarda davomat ahvolini muntazam o'rganib, muttasil dars qoldiruvchi o'quvchilarni ta'limga qaytarish choralari ko'rsin.

12. Tuman prokuraturasida tuzilgan Muvofiqlashtiruvchi shtab va uning ishchi guruhlariga:

joriy yilda mahalla va ovullarda huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi borasidagi ishlar natijadorligini, shu jumladan joylarga bevosita chiqqan holda tizimli monitoring qilib borish hamda maqsadli ko'rsatkichlarga erishish ahvolini kunlik nazorat qilish;

joriy yilning birinchi choragi uchun tuman va mahallalar kesimida ishlab chiqiladigan "yo'l xaritalari"da nazarda tutilgan chora-tadbirlarning izchil, sifatli va o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash;

har o'n besh kunda kriminogen vaziyati og'ir va jinoyat sodir etilgan mahallalarda amalga oshirilayotgan ishlarning ahvoli va natijadorligi bo'yicha barcha mas'ul idora va muassasalar bilan tanqidiy muhokamalarni o'tkazish hamda ushbu masalaga mas'uliyatsizlik bilan yondashgan rahbarlarga nisbatan lavozimidan ozod etishgacha bo'lgan ta'sir choralari ko'rish yuzasidan asoslantirilgan takliflarni berib borish;

tuman va mahallalar kesimida tayyorlanadigan "yo'l xaritalari"ning ijrosi bo'yicha kunlik hisobotlarni tuman hokimiga kiritib borish vazifasi topshirilsin.

13. Tuman prokurori (Z.Barnayev) har oy yakunida kriminogen vaziyat og'ir va jinoyat sodir etilgan mahallalarda amalga oshirilayotgan ishlarning ahvoli va natijadorligi bo'yicha barcha mas'ul korxona va muassasalar hamda tuman hokimi bilan tanqidiy muhokamalar o'tkazilishini hamda ushbu masalaga mas'uliyatsizlik bilan yondashgan rahbarlarga nisbatan ta'sir choralari ko'rib borilishini yo'lga qo'ysin.

14. Tuman hokimligi matbuot kotibi J.Musayev)ga "Ijtimoiy profilaktika haftaligi" doirasida tumanda amalga oshiriladigan ishlar to'g'risida ommaviy axborot vositalari (shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlar)da keng yoritib borish bo'yicha shaxsiy mas'uliyat yuklatilsin.

15. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Tuman hokimi



Sh.Boltayev